unashtirib qo‘yish odati)[1], *suyunchi* (biron quvonchi voqeani yetkazishda beriladigan pul yoki sovg‘a). Bundan tashqari biz adabiyot namunalarida ayrim hududlargagina xos so‘zlarga ham duch kelishimiz mumkin. Dialektizmlar esa adabiy tilga kirib kelmagan, faqat ma’lum bir hududdagina ishlatiladigan so‘zlarni ifodalaydi. Dialektizmlar etnografik leksikaning bir qismidir, ammo bir narsani unutmaslik lozimki, hamma dialektizmlar ham etnografizm bo‘lmasligi mumkin, shunki ayrimlari adabiy tilda mavjud so‘zning boshqacha atalishi xolos. Dialektzmlarning etnografik leksika deb atalashi uchun yoki shu guruhga mansub bo‘lishi uchun so‘zning yoki so‘z birikmasining ekvivalenti adabiy tilda uchramasligi lozim. Masalan, Farg‘ona shevasida *“shoti”* adabiy tildagi *“narvon”* so‘zining, Buxoro shevadagi *“bacha”* esa adabiy tildagi *“bola”* so‘zining dialektga xos ko‘rinishidir. ko‘rinishidir. Xorazm shevasida mavjud *“manatli taxya”* tangalar bilan bezatilgan ayollar bosh kiyimini anglatuvchi so‘z bo‘lib, adabiy tilda uchramaydi. Bunga yana bir qancha misollar keltirish mumkin: *jelak* (yengsiz, yupka kiyim), *baycha* (Qashqadaryo va Surxondaryo shevalarida xotin-qizlarga murojaat qilish uchun ishlatiladigan so‘z), yana shu hududlarga xos dialektizm *kal dala* (o‘simlik o‘smaydigan dala), *sungak olishig‘* (quda tarafga qiz berish yoki olish) Xorazm shevasiga xos dialektizm.

Xulosa: Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, etnografizm, dialektizm, lakuna va realiya kabi lingvistik birliklar tilshunoslik fanida alohida ahamiyatga ega. Turli olimlar ularni har xil nomlar bilan atagan bo‘lsalar-da, aslida xos so‘zlar ya’ni realiya, lakuna, etnografizm, dialektizm (adabiy tilda ekvivalenti yo‘q bo‘lsa) kabi tushunchalarning barchasi milliy koloritni ifodalovchi xos so‘zlar hisoblanadi. Ularni turli mamlakat tilshunoslari har xil davrlarda o‘rganib, har xil nomlagan bo‘lsa-da ular ayni tushunchani ifodalaydi. Lakuna va realiyalar asosan tarjima jarayonida ya’ni ikki til doirasida yuzaga kelsa, dialektizmlar adabiy til va uning shevalari orasidagi farqlar tufayli yuzga keladi. Xos so‘zlarning o‘rganilishi nafaqat nazariy jihatdan, balki amaliy jihatdan ham muhimdir. Tarjima jarayonida milliy-madaniy tafovutlarni to‘g‘ri yetkazish, tillararo muloqotni rivojlantirish va xalq madaniyatini o‘rganishda ushbu tushunchalar muhim rol o‘ynaydi. Kelgusida ushbu lingvistik birliklarning psixolingvistik, ijtimoiy lingvistik va tarjima nazariyasi nuqtayi nazaridan yanada chuqurroq o‘rganilishi lozim. Milliylikni ifodalovchi so‘zlarni o‘rganish, ularni tilshunoslik, madaniyatshunoslik va tarjimashunoslik nuqtayi nazaridan tadqiq qilish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, sun’iy intellekt va mashina tarjimasi sohalarida ham bu birliklarning qanday ifodalanishi masalasi dolzarb bo‘lib qolmoqda. Ushbu tadqiqot yo‘nalishlarida qo‘shimcha izlanishlar olib borish zamon talabiga aylanib bormoqda.

Qurbonova E’zoza Shuhrat qizi (Toshkent Amaliy fanlar universiteti dotsenti v.b., GulDU doktoranti, PhD; ezozasabirova118@gmail.com)

YURIDIK TERMINOLOGIYAGA OID TADQIQOTLARDA QO‘LLANILGAN METODLAR TAHLILI

Annotatsiya. *Maqolada yurisprudensiyaga oid terminologik birliklar tahlili aks etgan tadqiqotlar tahlilga tortilgan. Mazkur tadqiqotlarda terminologik birliklarning xususiyatlarini yoritish uchun qo‘llanilgan tadqiq metodlari yuzasidan tahliliy mulohaza yuritiladi. Mavjud ilmiy ishlarda qo‘llangan metodlar tavsifi bayon etilishi orqali yuridik terminologiyaning shu kunga qadar qaysi jihatdan o‘rganilganligi borasida xulosalar taqdim etiladi.*

Kalit so‘zlar: *yuridik terminologiya, metod, huquqshunoslik, huquq normasi, sistem yondashuv metodi, qiyosiy metod, tarixiy-sotsiologik metod, analiz va sintez, tarixiy metod.*

АНАЛИЗ МЕТОДОВ, ПРИМЕНЯЕМЫХ В ИССЛЕДОВАНИЯХ ЮРИДИЧЕСКОЙ ТЕРМИНОЛОГИИ

Аннотация. *В статье анализируются исследования, посвященные анализу терминологических единиц, связанных с юриспруденцией. В этих исследованиях представлен аналитический обзор методов исследования, используемых для выяснения характеристик терминологических единиц. Описывая методы, используемые в существующих научных работах, представлены выводы по изученным к настоящему времени аспектам юридической терминологии.*

Ключевые слова: *юридическая терминология, метод, юриспруденция, правовая норма, метод системного подхода, сравнительный метод, историко-социологический метод, анализ и синтез, исторический метод.*

[1] https://etnotravel.uz/maqola/suyunchi.2025-yil,30-may,19:06.

ANALYSIS OF METHODS USED IN RESEARCH ON LEGAL TERMINOLOGY

Annotation. *The article analyzes studies that reflect the analysis of terminological units related to jurisprudence. An analytical review of the research methods used to clarify the characteristics of terminological units in these studies is provided. By describing the methods used in existing scientific works, conclusions are presented on the aspects in which legal terminology has been studied to date.*

Keywords: *legal terminology, method, jurisprudence, legal norm, system approach method, comparative method, historical-sociological method, analysis and synthesis, historical method.*

Kirish (Introduction). Tadqiqot olib borish jarayonida ilmiy ishning pirovard maqsadini ochib berishda tanlangan metodlar muhim o'rin tutadi. Metodlarni to'g'ri tanlash, ularni asoslash va tadqiqot davomida izchil qo'llash natijaning muvaffaqiyatini ta'minlovchi asosiy omillardandir. Ilmiy izlanishning ko'zlangan maqsadga erishishida qo'llanadigan yo'l yoki vosita metod hisoblanadi. Umuman olganda, metod tadqiqotchi tomonidan ilmiy vazifani yechishda aniq, tizimli va ongli tarzda tanlanadigan usul yoki yondashuvlar majmuyidir. U izlanuvchining faoliyatini tartibga soladi, o'z oldiga qo'ygan maqsadiga erishishda amalga oshiradigan faoliyatini belgilab beradi.

Darhaqiqat, tadqiqotda qo'llanadigan har qanday metod maqsadga yo'naltirilgan bo'lishi shart. Aks holda, undan tadqiqotda foydalanish mantiqsiz va samarasiz bo'lib qoladi. Tadqiqotda qo'llanadigan metodlar muayyan tadrijiylikka ega bo'lishi, ilmiy maqsadga bosqichma-bosqich olib borishi lozim. Shuningdek, metodni faqat nazariy tushuncha deb tushunish maqsadga muvofiq emas. Chunki metod amaliy faoliyatda muayyan natijaga erishish imkonini beruvchi aniq usuldir. Metodning takrorlanuvchanligi uni turli vaziyatlarda qo'llash mumkinligini anglatadi. Ma'lum bo'ladiki, metod har qanday tadqiqotning tayanch nuqtasidir. Qayd etish lozimki, tadqiqot mavzusi, maqsadi va vazifalari o'rganish jarayonida qanday metodlarni qo'llashni belgilaydi. Ilmiy izlanishda metodning ahamiyati haqida quyidagi fikrlarni keltirish o'rinlidir. "Metodologiya va tadqiqot metodidan xoli birorta ilmiy asar mavjud bo'lmaydi. Shunday ekan, fanda ilmiy tadqiqot metodologiyasi va metodi markaziy o'rinni egallaydi" [3;16-b.]. Tadqiqotchi muayyan tadqiq manbayini o'rganar ekan, bunda ko'plab metodlardan foydalanishi mumkin. Chunki "tadqiq manbayining ma'lum bir qirrasi (tomoni)ni o'rganish ("o'lchash")ga xoslangan usullar tadqiq metodlari deb ataladi" [2:8-b.]. Tadqiq manbayi va predmetini to'g'ri tanlash, chegaralash va uni asoslash ilmiy maqsadga erishishdagi dastlabki muhim qadam bo'lsa, tadqiq metodlarini to'g'ri tanlash keyingi muhim qadamlardandir.

Tahlil va natijalar. Shu vaqtgacha yuridik terminologiyani tadqiq qilgan olimlarimiz tadqiq manbayini o'rganishda turli usullarni qo'llaganlar. Masalan, L.M.Boyko o'z tadqiqotida (1984) quyidagi metodlarni qo'llaydi: 1) sistem yondashuv; 2) tarixiy-sotsiologik metod; 3) qiyosiy metod; 4) analiz va sintez kabi. Sanalgan metodlar tadqiqotchiga qonunchilik texnikasining o'ziga xos jihatlarini ochib berishda qo'l kelgan. Sistem yondashuv metodi ilmiy bilishning o'rganish obyektini o'zaro munosabatga kirishuvchi elementlardan iborat tizim sifatida qarashga asoslanadi. Sistem yondashuv quyidagi tamoyillarga tayanadi:

1) butunlik. Bunda sistema o'zidan yuqorida turuvchi sistema tarkibiga kiruvchi yaxlit butunlik sifatida qaraladi;

2) iyerarxik qurilishga egalik. Sistema o'zaro munosabatda bo'lgan kamida ikkita elementdan iborat bo'ladi;

3) muayyan tuzilishga egalik. Sistemani hosil qiluvchi elementlar o'ziga xos strukturani hosil qiladi. Qayd etish lozimki, sistemaning xususiyatlari uni hosil qiluvchi elementlarning xususiyatlari va struktura xususiyatlariga bog'liq bo'ladi;

4) farqlilik. Sistema xususiyatlari uni hosil qiluvchi ayrim elementlar xususiyatlaridan farqlanadi [5;112-b.].

L.M.Boyko tadqiqotida qonunchilik texnikasini yaxlit tizim sifatida qaralgan o'rinlarda aynan shu metoddan foydalanilgan. Shuningdek, qonunlarni tartibga solish, qonun matni qismlarini chegaralashda ham bu metod amaliy ahamiyatga ega bo'lgan.

Mazkur tadqiqotchining tahlil qilinayotgan dissertatsiyasida qo'llangan tarixiy-sotsiologik metod o'z davrida ishning o'ziga xos senzuradan o'tib olishida muhim sanalgan. O'sha davrda mamlakatimiz sovet davlati tarkibida bo'lganligi qabul qilinayotgan qonunlarning sotsialistik nuqtayi nazardan baholanishiga sabab bo'ldi. 1977-yilda konstitutsiya qabul qilinganligi va uning ittifoq tarkibidagi davlatlar qonunchiligiga ta'siri masalalari tarixiy-sotsialistik metod asosida ochib berilgan. Qayd etish lozimki, qiyosiy-tarixiy metod yuridik terminologiya uchun muayyan davrda qo'llangan metodning bir turi sifatida L.M.Boyko tadqiqotida namoyon bo'ladi.

L.A.Karimovaning 1991-yilgi tadqiqotida til haqidagi qonunlarning ma'naviy va huquqiy aspektlarini ochib berishda yuqorida keltirilgan metodlarga yaqin usullardan foydalanilgan, deyishimiz mumkin. Jumladan, huquqiy faoliyatga doir holatlar qiyosiy-huquqiy, shakliy-mantiqiy, tarixiy metodlardan foydalanilgan. Qiyosiy-huquqiy metod til haqidagi qonunlar, ularda qo'llangan yuridik terminlar qiyoslanishida samarali bo'lgan. Shakliy-mantiqiy metod esa qonun matnlarining ulardan ko'zlangan mohiyatga qay darajada mosligini tekshirishda qo'l kelgan. Tarixiy metod esa til haqidagi qonunlarning xalq ijtimoiy hayoti va ma'naviy qiyofasiga ta'siri nuqtayi nazaridan tekshirish usuli bo'lib xizmat qilgan. "Tarixiy metod o'rganish obyektini o'tmish bilan bog'lab o'rganishni, tarixiy faktlar voqealar ko'zgusida tadqiq qilishga asoslanadi. Bunday uslub tarixiy ma'lumotlarni yozishda birinchi o'rinda turadi" [9]. Tabiiyki, bunday metod tarix fanida olib boriladigan tadqiqotlar uchun juda qulay. Ammo istalgan fan sohasida tushunchalar tarixiylik nuqtayi nazaridan tekshirilishi mumkinligini ham unutmaslik lozim. Shu jumladan, L.A.Karimova tadqiqotida ham shunday holatning guvohi bo'lishimiz mumkin.

Yuridik soha terminologiyasi, nutqi sohasida yirik mutaxassis bo'lgan Sh.Ko'chimov O'zbekiston Respublikasi qonunlarining 90-yillar boshidagi tili xususiyatlarini ochib berishga bag'ishlangan tadqiqotining ilmiy maqsadlariga erishishda o'zbek tili qonuniyatlariga, shuningdek, A.Saidov, G'.Abdumajidov, G'.Ahmedov kabi huquqshunoslarning tadqiqotlariga tayanganligini qayd etadi [7;6-b.]. Tabiiyki, gap qonun tili haqida borar ekan, bunda huquqshunoslik va tilshunoslik sohalari hamkorligi talab etiladi. Tadqiqotda qayd etilgan quyidagi fikrlar yuqorida bayon etilganlarni dalillaydi: "...oraz, jamol, jilvakor, diyor, yor, sohibjamol, dardkash kabi poetik leksika, emotsional-ekspressiv so'zlar, jargon, argo va shevaga xos so'zlar qo'llanilmaydi" [7;6-b.]. Keltirilgan iqtibos qonun tilining leksik-semantik xususiyatlari tayanadigan asoslardan bir qismini qamrab oladi. Ya'ni, qonun matniga kiritiladigan har qanday so'z yuqoridagi talablarga javob berishi lozimligi Sh.Ko'chimov tomonidan qayd etildi. Bu kabi xulosalarga kelish, albatta, olimdan huquqshunoslik va tilshunoslik me'yorlarini mukammal bilishni talab qilardi.

Sh.Ko'chimov huquqiy normalarni o'zbek tilida ifoda etishning ilmiy-nazariy muammolarini ochib berishda prezident asarlarida qayd qilinayotgan huquqiy davlat qurish, kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etish, milliy istiqlol g'oyalariga doir fikrlari metodologik asos bo'lganligini qayd etadi [8;8-b.]. Shuningdek, ilmiy bilishning muammoli-analitik, tarixiy, qiyosiy-huquqiy, aniq sotsiologik tizimi kabi usullar tadqiqot metodi sifatida keltiriladi. Muammoli analitik metod yordamida olim huquqiy normaning nima ekanligiga aniqlik kiritadi va uning ifodalanishida o'ziga xosliklarni umumlashtiradi. Sh.Ko'chimov huquqiy normalarning shakllanish jarayoni, yuridik va lingvistik fikrlarning bu borada bir-birini to'ldiruvchi maqomida bo'lishini aynan muammoli-analitik metod asosida ochib beradi. Umuman, olim tadqiqotning turli o'rinlarida aynan shu muammolar uchun mutanosib bo'lgan bir nechta metodlarga murojaat qiladi. Bu esa tadqiqot muammosining muvaffaqiyat bilan yechilishini ta'minlagan.

Yuridik terminologiyani istiqlol davri taraqqiyoti ko'zgusida tahlil qilgan G.Y.G'ulomova ilmiy maqsadga erishishda diaxron plan va qiyoslash metodlaridan foydalangan. Tadqiqot mavzusini yoritishda tilshunos va huquqshunoslarning ishlaridan foydalaniladi. Jumladan, yuridik terminlarning mavzuiy guruhlari va ularning o'zaro munosabatlarini yoritishda qiyoslash metoddan samarali foydalanilgan [6;6-b.]. Ta'kidlash lozimki, tilshunoslikda ham, huquqshunoslikda ham tadqiq metodlari juda ko'p. Bu fan sohalarini tadqiq etish usullarining tadrijiy rivojlanib, yangilanib borganligi, bir-birini to'ldirganligi bilan bog'liqdir. Qiyosiy tahlil har qanday sohada samarali usullardan bo'ladi. "Qiyosiy tahlil borliqdagi hodisalarni bilish va o'zgartirish bo'yicha metodologiya bosqichlaridan biridir. Qiyoslash metodologiyasi ma'lum bir makon va zamonda mavjud turli jarayonlarni qiyoslash uchun asoslarni shakllantiradi" [4;180-b.]. Ma'lum bo'ladiki, nazariy metodlarning aksariyati qiyoslash, tasniflash bosqichlaridan o'tadi. G.Y.G'ulomova tadqiqotida terminologik birliklarni guruhlashtirishda tasniflash va qiyosiy tahlil metodlari samarali bo'lgan va kutilgan natijalarga olib kelgan, deyishimiz mumkin. Chunki bir guruh elekmentini boshqa bir guruh elementidan farqlashda tadqiqotchi qiyosiy tahlil olib borishi, shubhasiz. Garchi tadqiqotning kirish qismida maxsus bayon qilinmagan bo'lsa-da, G.Y.G'ulomova boshqa bir qancha tahlil metodlaridan foydalanganligi ko'zga tashlanadi. Masalan, terminologik birliklarning leksik-semantik munosabatlarini ochib berishda komponent tahlil metodiga ham murojaat qilingan. Komponent tahlil bir tizimga kiruvchi birliklarni o'zaro farqlaydigan komponentlarni qiyoslash orqali ilmiy tasavvurga ega bo'lish jarayonidir. Buni yuridik terminlarning huquqshunoslik sohasiga doirlik asosida umumiylik hosil qilishi, ammo sinonimik, antonimik, graduonimik, omonimik munosabatlar ko'zgusida ularning farqlari aniqlanishida ko'rishimiz mumkin. Chunki komponent tahlil ilmiy tadqiqot usuli, obyektiv voqelikni ilmiy bilish, o'rganish vositasi sifatida til birliklarining tizimdagi maqomini belgilash, farqli va umumiy jihatlarini aniqlashda qo'llanadi.

N.A.Jumaniyozova o‘zbek va ingliz tillarida yuridik diskursning pragmalingvistik xususiyatlarini ochib berishda tavsifiy, qiyosiy-tarixiy, diskursiv, kognitiv-konseptual, struktural, pragmatik, chog‘ishtirma va statistik tahlil metodlaridan foydalangan [1;10-b.]. Ko‘rinib turibdiki, ilmiy maqsadga erishish uchun tadqiqotchi ko‘plab usullarga murojaat qilgan. Masalan, tilshunoslikda yuridik diskursning ilmiy-nazariy asoslarini aniqlashda qiyosiy-tarixiy metod qo‘llangan bo‘lsa, yuridik diskurs o‘rganilishiga doir ilmiy-nazariy qarashlar qiyosi vositasida o‘rganish usullari tahlilga tortilgan. Ingliz va o‘zbek tillarida yuridik diskursning lingvistik xususiyatlarini belgilashda chog‘ishtirma va struktural tahlil metodlari qo‘llanganligini ko‘rishimiz mumkin. O‘zbek va ingliz yuridik diskursida presuppozitsiyaga ishora qiluvchi morfologik va sinaktik vositalarni ajratishda statistik tahlil metodidan foydalanilgan. Ingliz va o‘zbek tillarida yuridik nutq aktlari pragmalingvistik tahlilida, tabiiyki, pragmatik tahlil metodiga ehtiyoj tug‘ilgan. Shu o‘rinda N.A. Jumaniyozova aynan yuridik terminlarning o‘zini tadqiq qilmaganligini ta’kidlab o‘tish lozim. Ammo shuni unutmaslik kerakki, har qanday yuridik matnda yuridik terminlar qo‘llanishi shubhasiz. Shu sababli N.A. Jumaniyozova tadqiqotida yuridik terminlar yuridik diskursni tashkil qiluvchilar maqomida o‘rganilgan, deyish mumkin.

Xulosa. Keltirilgan tadqiqotlarda mualliflar tomonidan ilmiy maqsadlarga erishishda turli metodlardan foydalanilgan. Yuridik terminologiyani o‘rganishda yondashuvlarning ko‘pligi o‘rganish obyektining nihoyatda serqirra ekanligi bilan dalillanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Jumaniyozova N. Ingliz va o‘zbek tillarida yuridik diskursning pragmalingvistik xususiyatlari. Filol. fanl. b. fals. dokt. (PhD) diss., Toshkent, 2023, 10-bet; 71-bet.

(2). Ne’matov H., Mengliyev B., Hamroyeva Sh. Tilshunoslikning metodologik masalalari. GlobeEdit, 2020, 178-bet.

(3). Nurmonov A. Lingvistik tadqiqot metodologiyasi va metodlari. Toshkent, “Akademnashr”, 2010, 108-bet.

(4). Xalliyeva G. Qiyosiy tahlil metodologiyasi. Foreign Languages in Uzbekistan, 2022, №1(42), p. 180–189.

(5). Блауберг И.В., Юдин Э.Г. Становление и сущность системного подхода. Москва, “Наука”, 1973, с. 112; 271 с.

(6). Ғуломова Г.Ё. Ўзбек юридик терминологиясининг истиқлол даври тараққиёти. Филол. фанл. номз. ... дисс., Тошкент, 2004, 27-бет.

(7). Кўчимов Ш.Н. Ўзбекистон Республикаси қонунларининг тили. Филол. фанл. номз. дисс.... автореф., Тошкент, 1995, 26-бет.

(8). Кўчимов Ш.Н. Ҳуқуқий нормаларни ўзбек тилида ифодалашнинг илмий-назарий муаммолари (лингво-юридик таҳлил). Филол. фанл. д-ри дисс. ... автореф., Тошкент, 2004, 46-бет.

(9). https://ru.wikipedia.org/wiki/Исторический_метод [elektron manba]. Murojaat sanasi: 12.02.2025.

Kurbaniyazova Manzura Radjapovna (Termiz davlat Pedagogika instituti “Gumanitar yo‘nalishlarda xorijiy tillar” kafedrasi stajyor-o‘qituvchisi; kurbaniyazovamanzura4@gmail.com)

INGLIZ VA QORAQALPOQ TILLARIDAGI GASTRONOMIK METAFORALARNING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada XXI asr ingliz va qoraqalpoq badiiy matnlaridagi gastronomik metaforalarning lingvomadaniy xususiyatlari o‘rganilib, oziq-ovqat bilan bog‘liq metaforik iboralar o‘ziga xos madaniy qadriyatlar, hissiy idroklar va ijtimoiy xatti-harakatlarni aks ettirishiga e’tibor qaratilgan. Tadqiqotda konseptual metafora nazariyasi va tanlangan badiiy asarlarning qiyosiy sifat tahliliga tayanib, har ikki tildagi oziq-ovqat bilan bog‘liq metaforalarning kelib chiqishi, hissiy ma’nolari, tuzilish xususiyatlari va madaniy ahamiyati o‘rganilgan. Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, ingliz metaforalarida, ko‘pincha, individuallik, avtonomiya va mavhum fikrlashga urg‘u beriladi, qoraqalpoq metaforalarida esa jamoaviy tajribalar, hissiy zo‘riqish va ekologik qiyinchiliklar natijasida shakllangan tarixiy omon qolish strategiyalari ko‘proq asoslangan. Shuningdek, maqolada globallashuvning metaforik tilga ta’siri haqida so‘z yuritilib, gibrid metaforalarning paydo bo‘lishi, ayni paytda madaniy asosga ega ramziy ma’nolarning saqlanib qolayotganligi ta’kidlanadi. Ushbu qiyosiy tahlil turli jamiyatlarda metaforalarning madaniy o‘ziga xoslik, dunyoqarash va til ijodkorligini qanday ifodalashini chuqurroq tushunishga yordam beradi. Bundan tashqari, tobora globallashib borayotgan dunyoda qoraqalpoq tili kabi ozchilik tillarining metaforik boyligini saqlab qolish muhimligini ta’kidlaydi.*

Kalit so‘zlar: *gastronomik metaforalar, lingvomadaniyat, ingliz tili, qoraqalpoq tili, konseptual metafora, madaniy dunyoqarash, hissiy ifoda, globallashuv, metafora evolutsiyasi, qiyosiy tahlil.*